

MAXFIYLIK HAQIDA SHARTNOMA

Nizom asosida faoliyat yurituvchi «Gmoji 998» MCHJ nomidan Bosh direktor Kamilov U. U. va SHERIK, bundan buyon birgalikda «Tomonlar», alohida holda esa «Tomon» deb ataluvchi, quyidagilar haqida ushbu Maxfiylik haqidagi shartnoma (bundan buyon – «Shartnoma»)ni tuzishdi:

1-modda.

1.1. Mazkur Shartnomada «Maxfiy ma'lumot» deganda, bir Tomon tarafidan ikkinchi Tomonga yozma, og'zaki, elektron yoki boshqa xohlagan tarzda taqdim etilgan va Tomonlar tarafidan tuzilgan Shartnoma predmetiga, Tomonlarning xo'jalik-tijorat faoliyati yoki texnik imkoniyatlariga, shuningdek, buyum, xizmat, faktik va analitik ma'lumotlarga, xulosa hamda materiallarga oid har qanday ma'lumot; cheklanmagan holda o'zida xabar, hujjat hamda yozishmalarni mujassam etgan yangi texnik yechimlarning elementlari (nou-xau); O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari va boshqa huquqiy hujjatlariga muvofiq maxfiy ma'lumotlar sirasiga kirmaydigan ma'lumotlarni istisno qilgan holda, Tomonlarning xohlagan biri yozma ravishda yoki moddiy ma'lumot tashuvchida ruxsat cheklangan tegishli «Tijorat siri» yoki «Maxfiy» griflarini qo'yish yo'li bilan ko'rsatilgan taqdirda Tomonlar xodimlarining shaxsiy ma'lumotlari tushuniladi.

1.2. Maxfiy ma'lumotning bu ma'lumotni taqdim etgan Tomonning yozma rozilgisiz Shartnoma amalda bo'lgan butun muddat va undan keyin besh yil davomida oshkor qilinishiga va tarqatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

2-modda.

2.1. Tomonlar o'z zimmalariga barcha Maxfiy ma'lumotlarni sir saqlashni ta'minlash majburiyatini oladi, Shartnoma va/yoki qonun, va/yoki kuchga kirgan sud hukmi talablariga ko'ra o'rnatilgan oshkor qilish majburiyati bundan istisno. Vakolatli davlat organlari tomonidan ular kompetensiyasi doirasida so'ralgan ma'lumotlar ularni oshkor qilish majburiyati bevosita qonun bilan o'rnatilgan va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari talablariga ko'ra rasmiylashtirilgan so'rov haqida tegishli Tomon boshqa Tomonni oldindan xabardor qilgan holdagina berilishi mumkin. Bildirish yozma ravishda taqdim etilishi va unda nimaga asosan tegishli Tomon talab qilingan ma'lumot hamda unga tegishli tavsiflarni taqdim etishga majbur ekanligi ko'rsatilgan qonun qoidalariga havola aks etgan bo'lishi lozim.

2.2. Ushbu Shartnomaga muvofiq va unda ko'rsatilgan shartlarga ko'ra oshkor qilinishi lozim bo'lgan Maxfiy ma'lumot rahbar tomonidan imzolangan ro'yxat asosida tegishli Tomonning vakolatli xodimi tomonidan oshkor qilinishi mumkin.

2.3. Maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun Tomonlar mazkur Shartnomada ko'zda tutilgan va amaldagi ish faoliyatida bu kabi ma'lumotlarni himoya qilish uchun ishlatiladigan doimiy xavfsizlik choralarini ko'rishlari lozim. Agar bir Tomonning tashkilotida ma'lumotni himoya qilishning amalda ishlatiladigan doimiy xavfsizlik choralariga nisbatan yuqoriroq saviyali himoya choralaridan foydalanilsa, u holda, mos ravishda, bu Tomon Maxfiy ma'lumotni himoya qilishning o'zi foydalangan choralarini ko'rish zarur.

2.4. Shartnoma mazkur moddasining 2.3 bandi talablari bajarilgan taqdirda Tomon quyidagi holatlarda Maxfiy ma'lumotning oshkor qilinganligi uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi:

a) agar Maxfiy ma'lumot Tomonning yozma ravishda rasmiylashtirilgan roziligi olingan holda oshkor qilingan bo'lsa;

- b) agar Maxfiy ma'lumot Shartnoma talablariga mos ravishda oshkor qilingan bo'lsa;
- v) agar Maxfiy ma'lumot mazkur Shartnomaning 2.1 bandi qoidalari inobatga olingan holda davlat (shuningdek, mahalliy) hokimiyat organlari yoki sud hukmiga ko'ra oshkor qilingan bo'lsa.

2.4.1. Bir Tomon boshqa Tomonlarga birinchi Tomon tarafidan sodir etilgan, yoki uchinchi shaxslar tomonidan Maxfiy ma'lumot noqonuniy olinganligi yoki undan noqonuniy foydalanyotganligi, oshkor qilinganligi yoki oshkor qilish xavfi mavjudligi ma'lum bo'lganligi to'g'risida zudlik bilan xabar berishi lozim.

2.5. Mazkur Shartnomaning har bir Tomoni Shartnoma shartlariga ko'ra o'zi tomonidan quyidagilarning bajarilishiga so'zsiz va qat'iy kafolat beradi:

- a) har qanday jismoniy va yuridik shaxsrga Maxfiy ma'lumotni mazkur Shartnomaning 2.1 va 2.2 bandlarida ko'zda tutilgan shartlardagina oshqor etish;
- b) o'ziga taqdim etilgan Maxfiy ma'lumot saqlanadigan har qanday moddiy axborot tashuvchidan Shartnoma bo'yicha boshqa Tomon oldidagi shartnomaviy majburiyatlarini tegishli saviyada bajarish zaruratidan kelib chiqqan holda kerakli sondagina nusxa olish.

2.6. Bir Tomonga ushbu Shartnomaga muvofiq taqdim etilgan Maxfiy ma'lumotlar yozilgan barcha moddiy axborot tashuvchilar, shuningdek, ulardan olingan ko'chirmalar boshqa Tomon (boshqa Tomonlar)ning mulki hisoblanadi va bir Tomon tarafidan qaytarilishi va/yoki yo'q qilinishi lozim.

3-modda.

3.1. Tomonlar Maxfiy ma'lumotning uchinchi tomonga oshkor bo'lishiga olib keluvchi barcha xodimlari xatti-harakatlari uchun javobgardirlar

3.2. Mazkur Shartnoma shartlarini buzish bilan bir Tomon Maxfiy ma'lumotni uchinchi shaxslarga oshkor qilgan taqdirda, u Tomon boshqa Tomonlarga yetkazilgan zararni to'liq qoplashga majburdir.

4-modda.

4.1. Tomonlarning har biri O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid bo'lmagan usullarni qo'llagan holda, Shartnoma doirasida taqdim etilgan Maxfiy ma'lumotning boshqa Tomon tarafidan saqlanishi ta'minlanishi ustidan nazorat qilish huquqiga ega.

5-modda.

5.1. Ushbu Bitim maxfiy ma'lumotlarni almashish va maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha tomonlar o'rtasida tuzilgan ajralmas hujjatdir.

5.2. Ushbu Shartnomaga tuzatish va o'zgartishlar Tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolangan yozma roziliklari asosida kiritilishi mumkin.

6-modda.

6.1. Tomonlar ular o'rtasida mazkur Shartnomaga nisbatan yoki uning bajarilmasligi, buzilishi, to'xtatilishi yoki haqiqiy emasligi bilan bog'liq holda vujudga kelgan barcha e'tiroz, tortishuv, ziddiyat yoki kelishmovchiliklarni vijdonan va osoyishtalik bilan hal qilish vazifalarini zimmalariga oladilar, agar Tomonlar o'zaro kelisha olmasalar, u holda ushbu Shartnomadan kelib chiqqan barcha e'tiroz, tortishuv va kelishmovchiliklar tortishuvlarni tartibga solish uchun tuzilgan Shartnoma bilan tartibga solinadi.

7-modda.

7.1. Maxfiy ma'lumot (shu jumladan, tijorat sirlarini saqlovchi ma'lumotlar)ni taqdim etish qog'oz va mashinali (disket, kompakt-disk va b.) axborot tashuvchilar orqali quyidagi

usullaridan birida amalga oshiriladi:

7.1.1. Tomonlar tarafidan ko'zda tutilgan tartibda buyurtma pochta bilan jo'natish.

7.1.2. Tomonlar kurerlari orqali.

7.1.3. Shartnomada hamda mazkur Shartnomada ko'zda tutilgan tartibda.

7.2. Tomonlar o'rtasida tuzilgan Shartnomada ko'zda tutilgan Tomonlar o'rtasida korrespondensiya (ma'lumot)larni elektron ko'rinishda (tijorat sirlarini saqlovchi ma'lumotlardan tashqari) jo'natish Tomonlarning o'zaro kelishuviga ko'ra elektron pochta orqali amalga oshirilishi mumkin.

7.3. Tomonlar hamda uchinchi shaxslar o'rtasida Shartnoma predmetiga taalluqli ma'lumotlarni jo'natish boshqa Tomonlar bilan yozma ravishda muvofiqlashtirilgan taqdirda elektron ko'rinishda amalga oshirilishi mumkin.

7.4. Maxfiy ma'lumotli korrespondensiyalarni elektron pochta vositalari va/yoki faksimileli aloqa orqali jo'natish jo'natiladigan ma'lumot va (yoki) aloqa kanallari O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan tartibda sertifikatlangan yoki Tomonlarning himoyalangan korporativ kompyuter tarmoqlari doirasida shifrlash (kriptografiklash) vositalari yordamida himoyalangan taqdiridagina amalga oshiriladi.

7.5. Har bir Tomon mashinali axborot tashuvchi (disket, kompkt-disk va b.)lar orqali uzatiluvchi ma'lumot, elektron ko'rinishda uzatiluvchi hujjat va ishchi materiallar, elektron pochta xabarlari (shu jumladan, kiritilgan fayl)ning kompyuter viruslari bilan zaralanishi oldini olish bo'yicha o'zida mavjud barcha choralarni ko'radi.

7.6. Qog'oz va mashinali axborot tashuvchilar orqali jo'natiluvchi hujjatlarda tijorat sirlari mavjud bo'lgan taqdirda, bu tashuvchilarga ma'lumot egasi va u turgan joy ko'rsatilgan holda tegishli cheklov grifi qo'yilgan bo'lishi shart.

8-modda.

8.1. Mazkur Shartnoma qandaydir intellektual mulk huquqini, shu jumladan, mualliflik huquqi, tovar belgisi, shuningdek, Maxfiy ma'lumotni yaratish, undan foydalanish yoki uni sotish huquqini berishni ko'zda tutmaydi.